

2. Hikoyada so'z ketayotgan qahramonlarni tanidingizmi? Ular haqida nimalar bilasiz?

Barcha o'quvchilar ishtirokiga ko'ra baholanadi. Darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

 **Uyga vazifa:** Hikoyani rollarga bo'lib o'qish va mashq daftaridagi 5-topshiriqni bajarish.

13-mavzu: «Va'da» hikoyasi (Xurshid Davron)

Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad: o'quvchilarni Xurshid Davronning "Va'da" hikoyasi bilan tanishtirish, ifodali o'qish, topshiriqlar ustida mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish, hikoyani tinglab tushuna olish ko'nikmasini o'stirish;

Tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarda buyuk ajdodlarimizga bo'lgan muhabbat hissini oshirish; hikoyada aks etgan go'zallik va ezgulikdan o'rnak olishga intilish;

Rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarning mustaqil va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.

O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:

Dars turi: yangi bilim beruvchi

Dars metodi: savol-javob, interaktiv o'yinlar

Dars jihozi: tarqatma materiallar, multimedia ilovalari

Darsning blok chizmasi:

1.Kirish qismi(tashkiliy qism va o'tilganlarni takrorlash):

-O'quvchilar yangi kun bilan qutlanadi.

-Mavzu nomi e'lon qilinadi.

-Tashkiliy savollar beriladi.

-O'tilganlarni takrorlash : **"Tanlab so'zla" mashqi.**

O'quvchilar "Porloq yulduz" hikoyasini "Tanlab so'zla" mashqi yordamida so'zlab beradi. Bunda o'quvchilar juftliklarda bir-birlariga navbat bilan hikoyaning

o'zlari xohlagan qismini so'zlab beradi. Shundan so'ng o'qituvchi ulardan juftiga qo'ygan bahoni so'raydi. Ular qo'ygan baholarni qisqacha izohi bilan aytadi.

-Mavzuga qiziqtirish: **Milliy hunarmandchilik buyumlarimizdan nimalarni bilasiz?**



“Aqliy hujum” metodidan foydalanib savol-javob o'tkaziladi:

1. Alloma Ahmad al-Farg'oniy kim edi? Bu buyuk bobokalonimiz haqida nimalar bilasiz?

2. Uning huzuriga kimlar tashrif buyurdi?

3. Kichik Ahmad nimadan sevinib ketdi?

4. Ahmad al-Farg'oniy nima uchun shogirdining uyiga tashrif buyurdi?

Javoblar umumlashtiriladi va xulosa qilinadi.

2.Asosiy qism(yangi mavzu bayoni va mustahkamlash):

Maqolni izohlang.

Har mevaning po'chog'i bor,

Har so'zning o'lchovi bor.

O'quvchilarga yangi mavzu e'lon qilinishidan oldin quyidagi rasmlar ko'rsatiladi va shu asosda savol-javob o'tkaziladi:



1. Bu shaxslar kimlar?
2. Ular haqida qanday ma'lumotlarni bilasiz?

O'quvchilar javoblari tinglanib, fikrlar umumlashtiriladi va shu asosda yangi mavzu e'lon qilinadi.

“Va'da” hikoyasi o'qituvchi tomonidan o'qib, tushuntirib beriladi.

 **Lug'at ishi:**

yanglish – xato

zakovat – aql

uddasidan kelmoq – bajara olish

darhol – tezda

☒ **Darslik bilan ishlash.**

“**Aqliy hujum**” metodidan foydalanib savol-javob o'tkaziladi:

1. Asarni o'qish jarayonida ko'z oldingizda qanday holat gavdalandi?
2. Donishmand qayerlik edi?
3. Ayting-chi donishmandning qanday odati bor ekan?
4. “Uddasidan chiqmagan narsangizni nega va'da qilasiz?” – jumlasini qanday tushundingiz?
5. Mirzo Ulug'bek bo'lib o'tgan voqeani kimga so'zlab berdi?

 **Mashq daftari bilan ishlash.**

1-topshiriq o'quvchilar tomonidan mustaqil bajariladi. Amir Temur va Mirzo Ulug'bek haqida kichik matn tuzing.

2-topshiriq. “Klaster” to‘ldiring. Mirzo Ulug‘bek qanday xislatlar sohibi bo‘lgan?



3-topshiriq. Berilgan maqollarni davom ettiring.

1. Va‘daga vafo – mardning ishi,

Va‘dasiz – _____.

2. Va‘da – quruq, _____.

4-topshiriq. “Va‘da” hikoyasi matni asosida bo‘sh o‘rinlarni to‘ldiring.

Sohibqiron _____ Temur Ko‘ragoniyning nabirasi
_____ bolaligidan boshlab zakovat va farosat
sohibi bo‘lgan. U _____ ko‘p bilimlarni egallab, ustozlarni _____
_____, ustozlari ham uni sevguvchi edilar. Mirzo
Ulug‘bek yosh bola paytida Amir Temur _____ bir
_____ unga saboq bergan ekan.

5-topshiriq. Buyuk siymolarga mos ta’riflarni toping.



Amir
Temur

G‘azal mulking sultoni

Alisher
Navoiy

Buyuk astronom olim

Abu Ali
ibn
Sino

Sohibqiron

Mirzo
Ulug'be
k

Buyuk tabib

3. Darsga yakun yasash va o'quvchilarni baholash.

O'rganilganlar yuzasidan savol-javob o'tkaziladi:

1. Hikoya sizga yoqdimi?
2. Asardan Amir Temur va Mirzo Ulug'bekning suhbatini o'qing.
3. Mirzo Ulug'bek haqida aytilgan gaplarni topib ayting.
4. Hikoya qahramoniga ta'rif bering.

Barcha o'quvchilar ishtirokiga ko'ra baholanadi. Darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

 **Uyga vazifa:** Hikoyani o'qish. Mazmunini so'zlashga tayyorlanish.

14-mavzu: "Mening bolaligim" hikoyasi (Said Ahmad)

Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad: o'quvchilarni Said Ahmadning "Va'da" hikoyasi bilan tanishtirish, ifodali o'qish, topshiriqlar ustida mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish;

Tarbiyaviy maqsad: o'quvchilar qalbida buyuk ajdodlarimizga bo'lgan muhabbatni oshirish; hikoyada aks etgan go'zallik va ezgulikdan o'rnak olishga intilish hissini shakllantirish;

Rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqi, hozirjavoblik ko'nikmalarini rivojlantirish.